E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

ANALYSIS OF THE IMAGE OF FANTASTIC ELEMENTS IN THE EPIC "KHAMSA" BY ALISHER NAVOYI

Zebiniso Saparova

Termiz davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Abstract: This article deals with the fantastic motifs depicted in Alisher Navoi's “Khamsa” epics. Also, the article analyzes the interrelationship between the image of fantastic elements in “Khamsa” epics and today's discoveries. In the article, the fantastic elements in the epics “Farhod and Shirin”, “Saba'i Sayyor” and “Saddi Iskandari” are holographic theaters, interference rays, floating cities on water, robots, television, escalator, "cannibals" and "heavenly bodies". interpreted.

Keywords: Fantasy, mystical-fiction, holographic theaters, interference rays, “Iskander's wall”, fantastic element, “Iskander's mirror”, television, “jam”, robot, “paradoxography”, internet, “mysterious numbers”, social network, “gog magog”, space, planets, “submarine”, telescope, science fiction, myth, “floating city”, escalator, “man-eating creatures” and “heavenly bodies”, “witch”, “yalmogiz”, “giant”, “wrinkled”, “dragon”, “shum kpirir”, “fairy” and “alvasti”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida tasvirlangan fantastik motivlar haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada “Xamsa” dostonlaridagi fantastik unsurlar tasviri hamda bugungi kun kashfiyotlari orasidagi o‘zaro aloqadorlik tahlil etilgan. Maqolada “Farhod va Shirin”, “Saba’i Sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlaridagi fantastik elementlar gologramma teatrlari, interferentsiya nurlari, suv ustidagi suzib yuruvchi shaharlar, robotlar, televizor, ekskalator, “odamxo‘r maxluqotlar” va “osmon jismlari” talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: Fantastika, mistik-fantastika, gologramma teatrlari, interferentsiya nurlari, “Iskandar devori”, fantastik element, “Iskandar ko‘zgusi”, televizor, “jom”, robot, “paradoksografiya”, internet, “sirli raqamlar”, ijtimoiy tarmoq, “yajuj majuj”, kosmos, sayyoralar, “suv osti qurilmasi”, teleskop, ilmiy fantastika, mif, “suv ustida suzib yuruvchi shahar”, ekskalator, “odamxo‘r maxluqotlar” va “osmon jismlari”, “jodugar”, “yolmog‘iz”, “dev”, “ajina”, “ajdarho”, “shum kampir”, “pari” va “alvasti”.

Alisher Navoiy tadqiqotchilaridan biri Bertels Yevgeniy Eduardovich “Navoiy” monografiyasida shunday degan edi: “Navoiy ijodi muzey ko‘rgazmasi ham, tarixning parchasi ham emas. U yashamoqda va yashayveradi. Biz uni o‘rganayapmiz, ammo juda kam o‘rganayapmiz. O‘zining ulug‘ farzandi xotirasini ko‘z qorachig‘iday asarab-avaylash va uning asarlarini tinmay o‘qish– O‘zbek xalqining shon-sharafidir”.[1]

Maqolamizda Navoiy hazratlarining “Xamsa” dostonlaridagi fantastik motivlarni o‘rganamiz. Dastlab fantastika terminiga izih berishni ma’qul topdik. “Fantastika” yunoncha “phantastika” so‘zidan olingan bo‘lib, “taxayyul san’ati” demakdir. Fantastika janrning vazifalari va davr muammosini yoritishdek dolzarbligi o‘zgarmadi. Fantastika – haqiqatda mavjud bo‘lmagan, taxayyul kuchi bilan tasavvurdagina yaratilgan narsa-hodisalar tasviri, shunga asoslanuvchi adabiy asarlar jami hisoblanadi. Adabiyotda ertaklar, dostonlar va boshqa turdagi asarlar tarkibida fantastika janri alohida janr sifatida rivojlanib bordi.

Turkiy xalqlarning folklor ijodiyoti umumiy mushtaraklikni kasb etadi. Qadimgi xalq og‘zaki ijodi asosida shakllangan ertaklar, asotirlar, dostonlar, qo‘shiqlar, afsonalar, matallarda ko‘plab to‘qima obrazlarga duch kelamiz. Bu obrazlar g‘ayritabiiy kuchga, sehrga yoki inson aqli ishonishi qiyin bo‘lgan tilsimli sirga ega bo‘lishadi. Yirik maxluqotlar ya’ni ajdarlar, devlar va makkor hamda sehrga ega bo‘lgan shum kampir, qitmir chol, yovuz zakiy vazir ba’zi o‘rinlarda shoh, tabiat hodisalarinining egalari bo‘lgan suv parilari, shamol jinlari, yomg‘ir, qor,

[1] B.Ye. Bertels. Navoiy. Monografiya ./Tarjimon I.K.Mirzayev – f.f.d, prof. T.: “Tafakkur qanoti”, 2015. – 4 bet.

olov, yer, o‘simliklar va hayvonlarni homiysi bo‘lgan ma’bud va ma’budalar kabi to‘qima obrazlar mavjuddir.

Yozma adabiyotning rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. Ko‘plab ijodkorlar o‘z asarlarida folklor ijodiyotidan unumli qo‘llashgan. Xususan, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Atoiy, Durbek, Lutfiy, Alisher Navoiy, Haydar Xorazmiy, Ogahiy va boshqalar. Ular o‘z ijodlarida xalq qo‘shiqlari, maqollari, ibratli hikmatli so‘zlaridan foydalanish bilan birga fantastik unsurlaridan ham zaruriy o‘rinda qo‘llashgani yaratilgan asar namunakrini xalqqa yaqinlashishiga asos bo‘lgan. Folklor asarlarida go‘zallik va mardlik, kuch-quvvat, sevgi va sadoqat, donolik va qahramonlik, mo‘jizakorlik va abadiy tiriklik, yovuzlik va zulm kabi sifatlarni o‘ziga singdirgan rang-barang obrazlar silsilasi namoyon bo‘ladi. Bu obrazlarning har biri o‘zidagi yetakchi belgilari asosida yozma adabiyotda ma’lum bir maqsadda faoliyat ko‘rsatadi.[2]

“Xamsa” dopstonlaridagi qahramonlarining vujudga kelishi va takomili ko‘hna xalq tarixiga va xalq ijodiyotiga borib taqaladi. Xisrav, Shirin, Qays, Ibrohim, Iskandar kabi obrazlar aslida tarixiy prototiplar asosida vujudga kelgan bo‘lsa ham, boshlab ular xalq fantaziyasi, badiiy ijodkorligi bilan yo‘g‘rilib, folklor qahramonlari sirasidan o‘rin oldi, keyin yozma adabiyot obidalari tomon yo‘l oldi, kamolot cho‘qqisiga ko‘tarildi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Sab’ayi sayyor”, “Saddi Iskandariy” kabi dostonlarida aks etgan buyuk orzular tasviri alohida ahamiyatga ega. Ularda tasvir fantastika bilan reallikning o‘zaro tutashgan chizig‘ida taraqqiy etib boradi. Masalan, shoir fantastik maxluqlar – ya’juj-ma’jujlar to‘g‘risida yozar ekan, Iskandarning ular hujumiga qarshi devor bunyod etganini hikoya qiladi. Bu devor tasviri ham fantastik bo‘yoqlardan xoli emas. Uning eni besh yuz, uzunligi esa o‘n ming qulochdan iborat. Ammo bu fantastik devorning tasvirida o‘rta asr inshootlari uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlar mavjud.

Qadimgi mifologik obrazlar asosan ezgulik va yozuvlik timsollaridan tashkil topgan. Ular o‘rtasidagi azaliy kurash yovuzlik mifilogik obrazlar dev, ajdar, jin, pari, jodugar va makkor kampir qiyofasida tasvirlangan. Ular bilan esa mard va jasur qahramonlar kurash olib borishadi. Bu mifologik obrazlar ming yillar davomida ishlanib, og‘zaki ijoddan yozma adabiyotga ko‘chadi. Alisher Navoiy ham o‘zining “Farhod va Shirin”, “Saba’i Sayyor” va “Saddi Iskandariy” dosonlarida dev, ajdar, ya’juj-ma’juj, shum kampir va sehrgarlar kabi obrazlar mavjud. Bu obrazlar dostonlarda asosan, ofat, zulmat, qabohat, razolat, o‘lim, kulfat, baxtsizlik, ochko‘zlik, nafs, xudbinlik va yovuzliklar timsoli sifatida yoritilgan.

Xalq og‘zaki ijodiga oid ertak va dostonlarda hiylagar, makkor, sehrgarlik ishlaridan voqif to‘qima obrazlar mavjud. Ana shunday obrazlardan biri Maston kampir obrazidir. Bu obraz dastlab ertaklarda paydo bo‘lgan va keyinchalik dostonlarga ko‘chgan. “Guliqahqah” ertagida ham tilla evaziga yomonliklar qiladi. Yolg‘on va hiyla bilan yaxshi kishilarning oydin kunini qoraytiradi. Bu obrazni o‘zbek xalq dostondarida ham uchratamiz. Xususan, “Alpomish” dostonida ushbu obraz yolg‘on so‘zlab soddadil Alpomishni tuzoqqa tushirib, qasosini oladi. Hazrat Alisher Navoiy ham ushbu obrazdan o‘zining “Farhod va Shirin” dostonida bosh qahramon Farhodni aldov yo‘li bilan halok bo‘lishida qo‘llagan. Ikki dostonda ham Maston kampir ayyor, jodugar va yovuz obraz sifatida gavdalanadi. Bu obraz real hayotda bo‘lishi mumkin holatda tasvirlangan bo‘lsa-da, uning sehr-jodu qilishi hamda zakiy bo‘lgan qahramonlarning uning aldoviga darrov ishonishida albatta fantastik motivlar mavjud.

“Farhod va Shirin” dostonida ham Maston kampir hiylagar jodugar sifatida tasvirlangan bo‘lib, u Shirinning vafotini chuqur qayg‘uda yetqazadi. Oqibatda Farhod ishq hijronida azoblanib boshini xarsangtoshlarga urib o‘zini halok etadi. Maston kampir bu xizmati uchun shoh Xusravdan sarpo oladi. Ikki dostonda ham magik sehr kuchiga ega bo‘lgan kampir obrazi salbiy qahramon sifatida podshohlarning tillasi evaziga fantastik motivdan ya’ni afsundan

[2] Ziyoda Masharipova. O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari (o‘quv qo‘llanma). T.: XT “Hamidov N.H.” matbaa korxonasi. 2008. –B 6.

foydalangan holda o‘zlarining qora niyatlariga erishadi. Agar ular afsunli so‘zlardan foydalanishmaganda edi, bosh qahramonlarni alday olishmagan bo‘lishardi.

Alisher Navoiyning aynan Farhod halokatiga sababchi bo‘lgan shum kampir obrazini biz fantastik obrazlarga bemalol qo‘shishimiz mumkin. Bu obrazning asosiy vazifasini mard va yengilmas qahramonlarni aldab tuzoqqa tushirish va ba’zi holatlarda halok qilishdan iborat. Alisher Navoiy hazratlarining “Saba’i sayyor” dostonida ham dev, jodugar kampir, Xizr alayhissalom obrazlariga duch kelamiz. Bu mifologik obrazlar uchinchi afsonasi bosh qahramoni Sa’d haqida bo‘lib, u dunyodagi eng go‘zal malikalardan biri Gulruxning visoliga yetish uchun ertaklardagi kabi uchta shartni bajarishi kerak edi. Uchta shartning uchinchisi makkorlik va sehrgarlikda tengi yo‘q kampir edi. Ming balo tasviri bo‘lgan qo‘rg‘onga kirish eshigining uchinchi qo‘riqchisi aslida sehrli tilsim bo‘lib, undagi qo‘rqinchli maxluqlar aslida yo‘qlikdan iborat edi. Buni unga ikkinchi qo‘riqchi hakim aytadi.

Hakim Sa’dga ustozi Faylaqus berib yuborgan maktub sabab, yordam beradi. Insoniyat nasli qo‘rqayotgan Zol otliq jodugar kampir aslida bir haykal bo‘lib, uning atrofidagi tasvirlar ham matodan tikilgan, sehr kuchi bilan hammasi haqqiqiydek ko ‘rinishini, hech biridan qo ‘rqmasdan, tog ‘riga borib, haykal ko ‘ksiga urib sindirishi kerakligini aytgan hakim Sa’d yonida turib unga yordam beradi. Sa’d ham qo‘rquv bilmasdan, atrofidagi og‘zidan olov purkayotgan va ustiga bostirib kelayotgan maxluqlarga qaramasdan, Zol oldiga boradi va uning ko‘ksiga bor zarbi bilan uradi. Haykal bo‘laklarga bo‘linib, sehrli tilsim g‘oyib bo‘ladi. Atrofda rang-barang mato parchalarigina qoladi. Navoiy hazratlari bu holatni quyidagicha tasvirlaydi:

“Zol davrida ko‘p balolar edi,
Shu’la poshanda ajdaholar edi.

Sa’d bevahm urub qadamni chust,
Tepti zoli xamida ko‘ksiga rust.

Zol tebrandi chunki o‘z yeridin,
Juzv-juzvi to‘kuldi bir-birdin.

Paykare erdi odami monand.
Latta birla sirishdin payvand.

Rishtani ajdaho qilib afsun,
O‘tlari hulla, poralar gulgun.

Sehrlarni chu botil etti tamom,
Yondiyu shoh sori qildi tamom”.[3]

Zol obrazidagi xayolot kuchiga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Zol aslida sehr kuchi bilan haykal bo‘lsa-da, jonli mahluqordek ko‘rinadi. Atrofidagi qo‘rqinchli og‘zidan olov purkovchi ajdarlar, devlar ham aslida mato parchalaridan qilingan. Ularning haqqoniy ko ‘rinishi uchun Zolga kuchli yorug‘lik tushurilgan va bu yorug‘lik atrofga tarqashi natijasida hamma narsalar haqiqiydek ko‘rinadi. Bu xayoliy texnologiya bugungi kunga kelib amalga oshdi. AQShda 2012-yilga kelib, birinchi marta gologramma teatri namoyish etildi. Texnologiya ixtirochisi Uve Maas tomonidan 52 yoshida vafot etgan dunyoga mashhur san’atkor Tupak Shakurning konserti qo‘yildi.

Keyinchalik gologrammali teatrlar dunyoning boshqa burchaklarida ham namoyish etila boshlandi. Bugungi kundagi dunyoga eng mashhur teatrlar AQSH, Xitoy va Yaponiyada mavjud. Dastlab dunyoga mashxur vafot etgan san’atkorlarni sahnaga qaytarish uchun paydo bo ‘lgan teatrlar endilikda katta sahna asarlarini ham namoyish etmoqda. Ayrim holatlarda gologramma

[3] Alisher Navoiy. Sab’ai Sayyor: Nasriy bayoni bilan / Alisher Navoiy; Nasriy bayonini tayyorlovchilar: I.Maxsum, S.Hasanov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006. – 165 b.

teatrdagi aktyorlar sanoqli, ko‘pchilik holatlarda bittagina bo‘ladi. Ammo siz sahnada soatlab, ko‘plab aktyorlar va aktrisalarni ko‘rishingiz mumkin. Eng muhimi ularning qaysi biri haqiqiy qaysi biri yolg‘on ekanini ajrata olmaysiz.

Buni zamonamiz sehri desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Navoiyning daholigi shundaki, XV asrdanoq 3 D yoki 4 D gologrammali teatrlarni vujudga kelishini bashorat qilganligida deb o‘ylayman. Gologramma so‘ziga to‘xtalsak, bu so‘z ikkita yunoncha so‘zning birlashuvidan vujudga kelgan bo‘lib, “Men yozaman, chizaman, tasvirlayman” degan ma’noni bildiradi. Bu atama birinchi marta fizik olim Dennis Gabor tomonidan 1949 yilda fanga kiritilgan.

Gologramma – bu ma’lum bir yuzadan to ‘lqinlarning aralashuvi bilan takrorlanadigan uch o ‘lchamli tasvir. Oddiy qilib aytganda, gologrammalar haqiqiy, jiymoniy ob’ektlarni aks ettiruvchi interferentsiya nurlari (bir nechta yorug‘lik nurlarining ma’lum bir nuqtada kesishishuvi va undan qayta paydo bo‘lgan yorug‘lik to‘lqinlarining vujudga kelishi) tomonidan yaratilgan uch o‘lchamli tasvirlardir. Fazo va bizni o‘rab turgan jamiki narsalar uch o‘lchamli borliqdadir. Bizning ko‘zlarimiz ham aynan shu uch o‘lchamli yorug‘lik ichidagi narsalarni ko‘ringanidek qabul qiladi.

Bu esa gologramma tasvirlarni paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Bu degani uch o‘lchamli yorug‘lik yordamida yo‘q narsani bordek ko‘rsatish imkonini beradi degani. Mana shunday murakkab fizik hodisani Alisher Navoiy bilgan va uni dostonida tasvirlagan hamda Zolni mag‘lub qilish uchun Sa’d shunchaki bu yorug‘likni birlashtirib turgan narsani parchalab tashlaydi. Gologrammali teatrda bizda ham namoyish etilmoqda. Birinchi marta 2019-yilda “Amir Temur” gologrammali teatri namoyish etilgandi. Sahnada faqatgina Amir Temur rolini ijro etgan aktyor haqiqiy boshqalari yorug‘lik mahsulidir.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida bosh qahramon Iskandar jahonni fath etishga qaror qiladi. Uning dunyoni ishg‘ol etishdagi bahodirligi va zukolligi fantastik elementlar asosida yoritilgan. Dostonda nomi tilga olingan buyumlarning g‘oyibona qudrati inson aqlini shoshiradi. Misol uchun “Farhod va Shirin” dostonida ham nomi ta’kidlangan “Iskandar ko‘zgusi”, “jom”, “suv ustida suzib yuruvchi shahar”, “yajuj majuj”, “suv osti qurilmasi”, “odamxo‘r maxluqotlar”, “sirli raqamlar”, “osmon jismlari” va boshqalar, shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy hazratlari “Farhod va Shirin” dostonida dunyoni va kelajakni ko‘rsatuvchi ko‘zgu haqida aytgan. “Oinai Iskandariy” deb nomlangan bu ko‘zguni hayotda mavjud ekaniga kitobxonni ishontirish uchun shoir uni tasvirlashda ilmiy farazdan foydalanadi. Bu ko‘zgu ko‘plab olimlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, unga sehrli tilsim yashiringan edi. Fantastik motiv asosida yoritilgan tilsimni bosh qahramon Farhod yechish uchun yo‘lga otlanadi. Bizning e’tiborimizni tortgan jihat Navoiy hazratlari garchi bu fantastik elementni xalq og‘zaki jidodidan olgan bo‘lsa ham uni mukammal tasvirlash bilan bir qatorda bugungi kashfiyotlarga oid ilmiy gipotezani XV asrdayoq ilgari surganligi insonni hayron qoldiradi.

“Farhod va Shirin” dostonida bosh qahramon Farhod duch kelgan hamda “Saddi Iskandariy” dostonida yana bir bor tasvirlangan bu “Oinai Iskandariy” ya’ni “sirli ko‘zgu” haqida navoiyshunos olimlar uni hozirgi kunda “zamonaviy televizor” yoki “televideniya”ga qiyos qilishgan. Misol uchun navoiyshunos olima Ra’no Ibrohimova: “Xitoy xoqoni taqdim etgan oyna Iskandarda yangi bir fikr uyg‘otadi. U atrofiga olim va fozillarni yig‘ib, ham osmondagi, ham yerdagi hodisalarni o‘zida aks ettira olish xususiyatiga ega bo‘lgan oyna yaratadi. Unga “Oinai Iskandariy” deb nom berishadi. Iskandar tashabbusi bilan kashf etilgan bu oyna hoirgi televideniening ma’lum ma’noda ko‘rinishidir”. [4]

Shuningdek, ushbu “sirli ko‘zgu” haqida Navoiyshunos olim B.E.Bertels aytadiki: “Zamonaviy televizorning prototipi: “bu o‘rinda Navoiy yana o‘z zamonasida faqat orzu-xayol bo‘lib, bizning kunlardagina ro‘yobga chiqarilgan texnika kashfiyotlari haqida bashorat qilgan”[5]

[4] Ra’no Ibrohimova. “Dahoning buyuk orzusi” ilmiy maqola. Toshkent: Jahon adabiyoti jurnali, 2006 yil, fevral 2-soni. B-145.

[5] Ye.Э.Бертельс. Избранные труды. Навои и Джами. М.,1965, с.169.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Bu ikki navoiyshunos olimlarning fikrida jon bor. Navoiy xazratlari o‘z zamonasidan turib, kelajakdagi insonlarda o‘z aql tafakkuri natijasida ko‘plab kashfiyotlarni amalga oshirishi mumkinligini his qilgan holda uni dostonlarida fantastik elementlar asosida “ilmiy gipoteza”larini bayon qilgan. Men bu “Oinai Iskandariy”ni bugungi kundagi “internet” va “ijtimoiy tarmoq”lar deya hisoblayman. Chunki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish uchun ham biz bir nechta topshiriqlarni bajaramiz. Qo‘limizdagi “gadjet”larimizni avval internet tarmog‘iga ulaymiz. Keyin biror ijtimoiy tarmoq turini tanlaymiz hamda maxsus kodlar va parollar yordamida o‘z profilimizni yaratamiz. O‘z profilimizdan agar o‘z rasmini ijtimoiy tarmoqqa joylagan bo‘lsa, istagan kishimizni ko‘rishimiz va tasavvur qilishimiz mumkin. Bizning oramizdagi masofa ham minlab chaqirimni tashkil etishi mumkin.

Navoiy xazratlari ushbu ko‘zguning tilsimini ochgan kishi o‘z taqdirini ya’ni kelajagini ko‘rishi imkoniyatiga ega bo‘lishini aytadi. Bu esa bugungi kunda vaqt mashinasi nomi bilan olimlar tomonidan kashf qilinishi kutilayotgan texnologiyani ham bashorat qilgan degan fikrga borishimizga asos bo ‘lmoqda. Ko‘zguning bunday noyob xususiyatini Alisher Navoiy hazratlari shunday tasvirlaydilar:

“Bu ko‘zgukim erur hikmat jahoni,
Tilsimedur shigarf anda nihoni”

Ki, har kim ochmog‘ig‘a sa’y qilsa,
Aning sa’yi bila bu ish ochilsa.

Kelib ko‘zguni yerdan olsa filhol,
Safolig‘ chehrig‘a ko‘z solsa filhol.

Nekim umrida andin turfaroq ish,
Emas mumkin, agar xud no‘sha gar nish

Ki, Tengri aylamish ko‘rmakni ro‘zi,
Qazo boshig‘a kelturmakni ro‘zi.

Bo‘lur bu ko‘zgu ichra jilvaoro,
Qilurg‘a g‘ayb sirrin oshkoro.

Vale ochmoqlig‘i mushkildur asru,
Gudozi jizmu ranji dildur asru.

Angakim tushsa ochmoq iztirobi,
Bu bo‘ldi ul muammoning hisobi”[6].

Dostonning nasriy bayonni quyidagicha:

“Dunyoning hikmatidan iborat bo‘lgan bu ko‘zguda ajoyib bir tilsim yashiringan. Har kim buni ochishga intilib, uning harakati bilan bu tilsim ochilsa, kelib, ko‘zguni tezlik bilan yerdan olsa, uning toza yuziga boqsa, shu boqqan odamning umrida bo‘ladirgan turli ishlar – bu ish bolday totli yoki tikanday zarharli bo‘lsa ham , Tangri unga bularni ko‘rishlikni, qazo esa boshiga keltirishni nasib etgan bo‘lsa, hammasi ko‘zguda jilva beradi va yashirin sirlarini uning o‘ziga oshkor etadi. Biroq uni ochish juda qiyin, gavdaga og‘irlik, dilga ranj-alam keltirish degan gapdir. Kimning boshiga buni ochish azobi tushadigan bo‘lsa, bu muammoni yechish hisobi quyidagichadir”.[7]

[6] Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G‘ofur G‘ulom tayyorlagan nasr bayonini to‘ldirib nashrga tayyorlovchilar: Abduqodir Hayitmetov, Vahob Rahmonov. Toshkent, G‘.G‘ulom nashriyoti, 2006, B-88,89.
[7] Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G‘ofur G‘ulom tayyorlagan nasr bayonini to‘ldirib nashrga tayyorlovchilar: Abduqodir Hayitmetov, Vahob Rahmonov. Toshkent, G‘.G‘ulom nashriyoti, 2006, B-393.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Xulosa qilib aytganda, shoirning yoshlarni fantastik xayolotiga ijobiy ta’sir etuvchi dohiyona fikrlari dostonlarida keng o‘rin egallagan. Bu dostonlar yosh avlodga buyuk so‘z san’atkori Navoiy ijodi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Shu ma’noda jahondagi eng buyuk to‘rt shoirning biri yanglig‘ tan olingan bu ulug‘ zot Alisher Navoiy hazratlari qarshisida bizga qoldirgan buyuk ilmiy merosi uchun chuqur hurmat bilan har birimiz bosh egib ta’zim qilishimiz hamda minnatdor bo‘lishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ra’no Ibrohimova. “Dahoning buyuk orzusi” ilmiy maqola. Toshkent: Jahon adabiyoti jurnali, 2006 yil, fevral 2-soni. B-145.
2. Ye.Э.Бертельс. Избранные труды. Навои и Джами. М.,1965, с.169.
3. Alisher Navoiy. Sab’ai Sayyor: Nasriy bayoni bilan / Alisher Navoiy; Nasriy bayonini tayyorlovchilar: I.Maxsum, S.Hasanov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006. – 165 b.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. G‘ofur G‘ulom tayyorlagan nasr bayonini to‘ldirib nashrga tayyorlovchilar: Abduqodir Hayitmetov, Vahob Rahmonov. Toshkent, G‘.G‘ulom nashriyoti, 2006, B-88,89, 393.

WORDLY
KNOWLEDGE